







Nogironligi bor yo‘lovchilar uchun poyezdlardagi imtiyozlar



Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada **poyezddan foydalanishda** sen uchun qanday **imtiyozlar** borligi haqida bilib olasan.
	Vazirlar Mahkamasining 109-sonli qaroriga ko‘ra, vokzallarda sen uchun **maxsus chipta kassalari** ajratiladi.
	Sen uchun ajratilgan maxsus chipta kassalari faqat chipta oluvchilar ko‘p bo‘lganda ishlaydi.

Illyustratsiya	Oson matn
	Sen: ● urushda nogiron bo‘lib qolgan bo‘lsang ● urushda qatnashgan bo‘lsang ● Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini bartaraf etishda qatnashgan bo‘lsang **navbatsiz** chipta olishing mumkin.
	Poyezdlarda joylar: ● o‘rindiqli ● kupeli ● platskartli bo‘ladi.
	Agar sen kupe yoki platskartda ketadigan bo‘lsang: ● chipta olayotganingda nogironlik hujjatingni kassa ishchisiga ko‘rsatib pastki o‘rindan joy olishing mumkin.

Illyustratsiya	Oson matn
	Sen yotoq joyingni mustaqil to‘shay olmasang poyezd ishchilari joyingni to‘shab berishlari shart.
	Poyezd buzilib qolsa yoki vagonlar ajratilsa, seni boshqa poyezddagi bo‘sh joyga o‘tkazishlari shart.
	Agar bo‘sh joy faqat **yuqori toifadagi** vagonlarda bo‘lsa ham seni bo‘sh joyga o‘tkazishlari shart.
	**Yuqori toifadagi joy** – bu poyezddagi biznes klass joylar. Ya’ni narxi qimmat, sharoiti yaxshi bo‘lgan vagonlar.

Illyustratsiya	Oson matn
	Sen bu imtiyozdan faqatgina chiptangga mos **bo‘sh joy qolmaganda** foydalanishing mumkin.
	**Vazirlar Mahkamasining 109-sonli qarorining** 152-bandiga ko‘ra ba’zi insonlar 1 **yilda 1 marta** poyezddan **borib va kelish uchun bepul foydalanishi mumkin.**
	1 yilda 1 marta poyezdlardan bepul foydalanuvchilar: • yarador bo‘lgan harbiy xizmatchilar, ishchilar • urush sababli birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bor xizmatchilar • Chernobil AESdagi avariyani bartaraf etishda nogiron bo‘lganlar (O‘zbekiston hududida)

Illyustratsiya	Oson matn
	• o‘zgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bor insonlar, ularga yordam beruvchi insonlar.
	• urush sababli uchinchi guruh nogironi bo‘lgan insonlar • urush qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan insonlar 1 yilda 1 marta poyezd chipta narxining yarmini to‘lash imkonini beruvchi talonlardan foydalanishi mumkin.
	Agar senda uchinchi guruh nogironligi bor bo‘lsa: • O‘tgan yilgi yoki keyingi yilgi poyezd chiptasini yarmini to‘lash imkoniyatingdan foydalanmagan bo‘lsang. • Sen talon olayotganingda o‘tgan yilgi yoki keyingi yilgi chipta narxini yarmini to‘lash imkoniyatingdan hozir foydalanishni xohlasang senga bir martalik bepul borib kelish chiptasi berishadi.

Illyustratsiya	Oson matn
	Urush sababli birinchi guruh nogironi bo‘lgan insonlarga **qaraydigan bitta yordamchiga** 1 yilda bir marta poyezdda borib kelishga 50 foizlik chegirma beriladi.
	Sen imtiyozli chipta olish uchun chipta kassasiga chegirma olish huquqini beradigan hujjatlarni berishing kerak.
	Chegirma olish huquqini beradigan hujjatlar: • Urush sababli nogironligi bo‘lgan inson guvohnomasi • Urush qatnashchisi guvohnomasi • Nogironlikni tasdiqlovchi guvohnoma • Imtiyoz huquqini beruvchi boshqa hujjatlar • Inson markazining o‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz keksalar va nogironligi bor insonlarni reyestrga kiritish haqidagi qarori.

Illyustratsiya	Oson matn
	Sen nogironlik aravachasidan foydalansang poyezd ishchisi aravachangni joylashtirishga yordam beradi.